


PEDAGOGIK MAHORAT

8
2024



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

8-son (2024-yil, avgust)

Jurnal 2001-yildan chiqqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2024, № 8

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universiteti, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Aljon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O’rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimbo耶evich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurullo耶ev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 8

24.	SHARIPOVA Shaxlo Sadullayevna	Pedagogika kollej rahbarlarning kasbiy kompetenligi	117
25.	DILOVA Nargiza Gaybullayevna, BAKAYEVA Rayxon Izatovna	Shaxs va jamiyat rivojida funksional savodxonlikni oshirishning ilmiy- nazariy asoslari	120
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM			
26.	SODIQOVA Aziza Hayitovna	Boshlang'ich ta'linda integratsiya - ta'lim jarayonini qulaylashtirishning muhim prinsipi	120
27.	ARSLANOVA Umidaxon Komiljon qizi	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy-estetik jihatdan rivojlantirishda tasviriy san'at bilan tanishtirishning ahamiyati	125
28.	ESHONQULOVA Malika Zayniddin qizi	Boshlang'ich ta'linda psixolingvistika orqali bog'langan nutqni shakllantirish masalasi	130
29.	G'IYOSOVA Farangiz Bayoz qizi	Boshlang'ich ta'linda nutq o'stirishning lingvistik lug'atlar asosida tashkil qilishning afzalliklari	135
30.	HIMOYEVA Sarvarbegim Jamilovna	O'quv-biluv topshiriqlari va ularning ona tili ta'limidagi o'rni	140
31.	NUSRATOVA Shahnoza Ibodullayevna	Boshlang'ich ta'linda raqamlashtirishning ahamiyati	145
32.	TURSUNOVA Saida Isakovna	Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zakini nutqini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	149
33.	XUDAYBERGANOV Shuhrat Shavkat o'g'li, SAPAROVA Bonu	Steam-tehnologiyasidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari rivojlantiruvchi markazlarida foydalanish usullari	153
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH			
34.	YAKUBBAYEV Murodilla Marufovich	Selection and systematization of educational materials for enhancing linguacultural competence in students	160
35.	KHOLMATOV Aziz Maratovich	Интеграция юмора в преподавание иностранных языков: жанры юмора как потенциальные приемы юмора	164
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH			
36.	BEKMURODOVA Manzura Bahodir qizi	Talabalarda so'nuvchi tebranishlar mavzusiga oid tayanch kompetensiyalarni dasturiy ta'lim vositasi yordamida takomillashtirish masalasi	172
37.	KULIYEVA Marxabo Xolboyevna, SHARIPOVA Shaxnoza Xasanovna	Fizika fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	178
38.	RAXIMOV Nasriddin Nomozovich, HAQNAZAROVA Xurshida Kenjayevna, BEGMATOV Akram Xasanovich	Ayniyatlarni isbotlash hamda yig'indilarni hisoblashga doir masalalarni yechish metodlari	184
39.	КОРЕГДИЕВ Абдор Алишер уғли, КОСМОДЕМЬЯНСКАЯ Светлана Сергеевна, ГАНИЕВ Бахтиёр Шукуруллоевич	Анализ перспектив применения вариативных информационных технологий в методике преподавания химии	189
40.	ДАВЛЕТОВА Селби Атаджановна	Мактаб ўқувчиларининг таянч компетенцияларини физик ва техник билимлар интеграцияси асосида ривожлантириши	195
41.	YUNUSOVA Ra'no Gayullaevna	Physics is a fundamental science about nature	200
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
42.	ABDULAXATOV Akramjon Ro'zmamatovich	Oliy ta'lim tizimida kurashning milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligini o'rgatish zamon talabi	204
43.	YO'LDASHEV Alisher Axrorovich	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik tizimi	209

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

OLIY TA’LIM TIZIMIDA KURASHNING MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYAT EKANLIGINI O’RGATISH ZAMON TALABI

*Abdulaxatov Akramjon Ro‘zmamatovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasи mudiri (PhD), dotsent*

Ushbu maqolada bugungi kunda jahonda kurash sport turining milliy va umuminsoniy qadriyat darajasiga ko’tarilishi va uning nufuzini yanada oshirish masalari, oliv ta’lim tizimida kurashning milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligini o’rgatish zamon talabi xususida fikr bayon etilgan. Mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlarini yoshidan qat’i nazar sog’lom turmush tarziga jaib qilish orqali kurashni yanada rivojlantirish va ommalashtirish, yoshlarni Vatanga sadoqatli etib tarbiyalash, kurashni jahon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning halollik, adolatlilik, bag’rikenglik kabi insonparvar g’oyalarini dunyo ahliga yanada keng targ’ib qilish, ushbu sohaga investitsiyalarni faol jaib etish orqali uni tijoratlashtirish hamda chinakam o’zbek kurashi brendini ommalashtirishni nazarda tutadi.

Kalit so’zlar: kurash, milliy sport turi, sport, talaba, qadriyat, urf-odatlar, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, musobaqa, jismoniy bellashuv, olimlar.

ПРЕПОДАВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ И ВСЕЛЕНСКОЙ ЦЕННОСТИ КУРАШ, ВИД СПОРТА (БОРЬБЫ) В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ — ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

В данной статье объяснены методы поднятия национальной и общечеловеческой мощи современного боевого искусства и повышения его престижа, высказано мнение о необходимости преподавания борьбы как национальной и общечеловеческой ценности в системе высшего образования. Дальнейшее развитие и популяризация борьбы путем привлечения к здоровому образу жизни всех слоев населения нашей страны независимо от возраста, воспитание молодежи в духе верности Родине, сделать борьбу одним из любимых видов спорта народов мира, его честность, справедливость, толерантность и т.д. Он подразумевает более широкое продвижение гуманистических идей среди народов мира, их коммерциализацию путем активного привлечения инвестиций в эту сферу, популяризацию истинно узбекского борцовского бренда.

Ключевые слова: кураш, национальный вид спорта, спорт, ученик, ценность, традиции, мужество, отвага, патриотизм, соревнования, физическое соревнование, ученые.

TEACHING THE NATIONAL AND UNIVERSAL VALUE OF THE STRUGGLE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IS THE NEED OF TIME

This article describes the idea of the modern demand to raise the level of national and universal value of the sport of wrestling in the world today and to further increase its prestige, to teach that wrestling in the higher education system is a national and universal value. It provides for the further development and popularization of wrestling by involving all segments of the population of our country in a healthy lifestyle regardless of age, the education of young people faithful to the Motherland, the transformation of wrestling into one of the favorite sports of World peoples, the further promotion of its humane ideas such as honesty, fairness, tolerance, it provides for the commercialization of the industry by actively attracting investments, as well as the popularization of the truly Uzbek wrestling brand.

Keywords: kurash (wrestling), national sport, sport, student, value, customs, valor, courage, patriotism, competition, physical competition, scientists.

Kirish. Jahonda ma’naviy-ma’rifiy va sport ishlarini tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg’usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. G’oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma’naviy tahdidlar

kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o’rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yet g’oyalar ta’siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo’shilib qolish holatlari hamon uchramoqda. Jismoniy yondashuv asosida talaba-yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko’maklashish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Jahonda kurash sport turi orqali talaba-yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish shart-sharoitlari, xususiyatlari, funksionalligi, samaradorligi va o’ziga xosligi, tarkibi, din va davlat munosabatlari, zamonaviy, ilmiy asoslangan, umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda kurashga oid bilim, ko’nikma va malakalar majmuuni rivojlantirish, g’oyaviy aqidalar, axloqiy norma va talablarni o’rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yo’lga qo’yilgan. Mazkur tadqiqotlarda qadriyat turli zararli g’oya va tushunchalarga qarshi omil sifatida insonning jamiyatdagi iqtisodiy, ma’naviy va mafkuraviy, diniy munosabatlarga kirishishining zamonaviy qonun-qoidalarini o’zida ifoda etishi asoslangan.

Mamlakatimizdagi qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g’oyalarini o’zida mujassam etgan milliy sportimiz bo’lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta’minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo’lgan e’tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.[2] “Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga etkazish”, o’zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo’lgan qiziqishlarini qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg’usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug’ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud [3].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2017 yil 2 oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Respublikamiz pedagog olimlaridan A.K.Atoev, A.R.Taymurodov, T.S.Usmanxodjayev, A.N.Abdiyev, N.A.Tastanov, Q.Q.Kuranboyev, D.T.Kenjayev, N.R.Ashurov, F.A.Kerimov, G.I.Maxmutova, K.T.Yusupov, F.Q.Axmedov, S.S.Tajibayev, I.X.Boymurodov, B.K.Erimbetov, N.X.Kushvaqtov, H.Ortiqov, A.D.Rajabov, R.Mamatqulova, Sh.K.Rayimov, M.O.Inomovalar tomonidan kurash sport turlari vositasi sifatida talabalarni vatanparvarlik ruhida axloqiy tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari, kurashni texnik-taktik jihatdan rivojlantirish va ommaviylashtirishning samarali yo’llari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo’stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan L.P.Matveyev, B.P.Nikitin, A.M.Novikov, M.A.Godik, P.V.Stepanov, V.S.Muxinalar kurashga oid jismoniy kompetensiyalarni rivojlantirish, M.M.Raximov, S.V.Kalmikov, I.I.Alihanov, L.P.Yugay, A.V.Gaskov, A.A.Ruziyev, V.A.Vorobej, V.F.Boyko, I.D.Svishevlar kurash orqali jismoniy sifatlarni takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijlik olimlardan D.Gierczuk, Magnani Branco, E.Kroshus, I.Bayraktar, M.Ross, J.Simenko, A.P.Driska, A.Visiedo, J.E.Otero, A.C. Tavares Junior, L.Ruiz Sanchis, S.S.Cooperlar tomonidan jahon sportida kurashning tutgan o’rni va uning falsafiy, pedagogik-psixologik, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy jihatlari o’rganigan.

Biroq, aynan kurash sport turi orqali talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish muammolari yetarli darajada o’rganilmagan.

Asosiy qism. Kurash bu nafaqat ikki sportchi o’rtasidagi jismoniy bellashuv mahorati, balkim yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vositasi hamdir. Kurash mazmuniga qoidalariga mardlik, halollik, to‘g’rilik, tozalik, g’oliblik va mag’lublikni tan olish, raqibni, murabbiylarni, tomashabinlarni, hakamlarni hurmat qilish kabi sport etikasi va insonparvarlik g’oyalarini singdirilgan. Kurash sporti orqali o’zbek an’analari, qadriyatlar, urf-odatlari, san’ati ham dunyoga tarannum etilmoqda. Qachonlardir milliy qadriyat hisoblangan kurash bugun umuminsoniy qadriyatga aylandi. Chunki bugun kurashni dunyo xalqlari zamonaviy sport turi sifatida qabul qildi va undan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanilmoqda. Kurash shunchaki sport turigina emas, balki insonning jismoniy, ma’naviy kamolotga

erishish vositasidir. Shu bilan birga kurashning ijtimoiy xarakteri, insonni shaxs sifatida tarbiyalashdagi o’rni beqiyosdir. Jamiyat rivojlanishi bevosita jismoniy madaniyat tushunchasining ham rivojlanishiga olib keladi. Kurash bugungi kunga kelib o’zining yuksak ijtimoiy ahamiyatini namoyon qilmoqda. Istiqlol xalqimizning boy ma’naviyatini qayta tikladi, shu bebaho ma’naviyatga bo’lgan mehr va muhabbatimizni, egalik hissimizni yanada oshirmoqdi. O’tmish ajdodlarimizning ibratli hayoti yo’li va serqirra ilmiy faoliyati milliy qadriyatlarimizni chinakam boyitgan bebaho xazinadir.

Kurashni yanada rivojlantirish va ommalashtirish mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlarini yoshidan qat’i nazar sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, yoshlarni Vatanga sadoqatli etib tarbiyalash, kurashni jahon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning halollik, adolatlilik, bag‘rikenglik kabi insonparvar g‘oyalarini dunyo ahliga yanada keng targ‘ib qilish, ushbu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish orqali uni tijoratlashtirish hamda chinakam o‘zbek kurashi brendini ommalashtirishni nazarda tutadi.

Quyidagilar kurashni yanada rivojlantirishning muhim vazifalari hisoblanadi:

- kurash bilan shug‘ullanish uchun zarur moddiy-texnik baza va sport infratuzilmasini yaratish;
- yoshidan qat’i nazar aholining barcha qatlamlari, shu jumladan yoshlarni kurash sportiga faol jalb qilish orqali mamlakatda ushbu sportning ommaviyligini yanada oshirish, O‘zbekistonda kurashni umumxalq sport turiga aylantirish;
- kurash trenerlari va hakamlarini tayyorlash, ular malakalarini bosqichma-bosqich oshirib borish, xorijiy davlatlar milliy federatsiyalariga trenerlarni “eksport” qilish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- kurashning yangi turlarini (xotin-qizlar kurashi, sohil kurashi, jangovar kurash va boshqalarni) ommalashtirish va rivojlantirish;
- kurash sport turiga investitsiyalarni keng jalb etish va ularni rag‘batlantirish, kurash xususiy klublari tizimini rivojlantirish;
- yaktak sport kiyimlari va kurash gilamlari ishlab chiqarishni hamda xorijiy davlatlar kurash federatsiyalariga muntazam etkazib berish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- kurashni xorijiy davlatlarda yanada ommalashtirish va rivojlantirish, uni jahon xalqlarining eng ommabop sport turlaridan biriga aylantirish.

O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda kurash an’analari-xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlarga muqaddas meros sifatida o‘tib kelayotgan bebaxo boylikdir. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan urf odatlarni asrash va kamol toptirish xar bir avlodning muqaddas burchi xisoblanadi. Ajdodlarimiz ananalari barxayot bo‘lishi uchun, avvalo uni kelajagimiz buniyodkorlari bo‘lgan yoshlar ongida barqarorlashtirish lozim, aks xolda yoshlar tomonidan ajdodlar an’analarning qadirlanmay qo‘yilishi avlodlar o‘rtasida ma’naviy uzulishni vujudga keltiradi. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan xalq ananalari sho‘rolar davrida jiddiy to‘sqliarga uchragan bo‘lsada, o‘zbek xalqi mustaqillikka erishgandan so‘ng, qayta tiklana boshladi. Chunki an’analalar xalq manaviyatining tarkibiy qismi, muxum axloqiy qadriyat, tarbiya vositasidir. Xalq an’analari, marosimlar jarayonida namoyon bo‘layotgan odob-axloq, mexr-oqibat, izzat-ikrom kabi xislatlar yoshlar manaviyatining shakllanishida muxim axamiyat kasb etmoqda. Bunday ulkan va o‘ta ma’suliyatli ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti, inson hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri nuqtai nazaridan progressiv va reasion qadriyatlarga ajratilishini ham esdan chiqarmaslik kerak. Jamiyatimizning iqtisodiyoti, madaniyati va ma’naviyatining ilgari qarab rivojlanishiga, milliy axloq, odob, urf-odat negizlarida komil insonni tarbiyalashga, mustaqil Respublikamizni har tomonlama ravnaq toptirib, jahon sivilizasiyasiga qo‘shishga astoydil xizmat qiladigan qadriyatlar - bu progressiv qadriyatlarni tashkil etadi. Aksincha, xukumatimiz oldida tupgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma’naviy muammolarni hal etishga to‘sqinlik qiladigan hodisalar reaksiyon qadriyatlarga kiradi.

“Qadriyatlar” tushunchasini qadriyatshunoslikning maxsus kategoriysi sifatida o‘rganish, respublikamizda ijtimoiy-falsafiy, pedagogik-psixologik bilimlar tizimini kengayishiga, ilmiy-aksiologik muammolarni hal qilish borasidagi tadqiqotlar mazmuni, yo‘nalishlari va ko‘lami o‘zgarishiga olib keladi: bu boradagi tadqiqotlarni amalga oshirish nazariy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”. “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagи voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”. “Qadriyat – vogelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”, - degan ta’riflar berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega

bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘limgan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Keyingi vaqtarda O‘zbekistonda milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajodolar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma’naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Taraqqiyot strategiyasi” – islohotlarning yangi bosqichi bo‘lib, unda aholini, oilalarni ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu o‘rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar asosida davlat idoralari xodimlarining uyma-uy yurib, xalq dardini tinglash, og‘irini engil qilish, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikni o‘rganish ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati va amaliyoti bilan bog‘liq xususiyatlarini, bu qadriyatlarni muayyan aksiologik tizimlardan iborat namoyon bo‘lish jihatlarini tahlil qilishni zaruriyatga aylantiradi. Ushbu qadriyat shakllarini har biri umumiylizimda o‘ziga xos mazmun va ko‘lamga, namoyon bo‘lish xususiyatlarini, boshqa qadriyatlarga nisbatan o‘rnii, mavqeい va ahamiyatiga ega. Shu bilan birga ularni har biri turli shakllarda, rang-barang holatlarda namoyon bo‘ladi, xilma-xil jihat va xususiyatlar “kashf” etadi. Bu xilma-xillik va rang-baranglik umumiylizimdagisi uyg‘unlikka doimo ham zid kelavermaydi, balki uning muayyan barqaror holatidagi turli tumanlikni ifodalaydi, tarkibiy qismlar o‘zaro aloqasidagi “bo‘shliq”larni to‘ldiradi. Shu bilan birga qadriyatlar tizimini tashkil etgan rang-baranglik muayyan muddatga o‘zgarmasdan turishi mumkin, bu esa o‘z navbatida ana shu aniq tizim tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalarini mutanosib bo‘lishiga asoslanadi. Bunday “nisbiy tinchlik” holatida qadriyatlar tizimini tashkil qilayotgan tarkibiy qismlardagi xilma-xillik ham bir muddatga barqaror tus oladi. Ana shu xilma-xillik, namoyon bo‘lishdagi o‘ziga xoslik, betakrorlikni tahlil qilish imkonini tug‘iladi va bunda ularni barqaror holatiga xos “manzarasi” qarab chiqiladi.

Qadriyatshunoslik masalalari hozirgi davrda ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yo‘lidan borayotgan Yangi O‘zbekistonda qadriyatlarning jamiyat hayotidagi ahamiyatini atroficha o‘rganish, hayotimizda umuminsoniy tamoyillarning ustuvorligini ta‘minlash nuqtai nazaridan bu masalalarning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Avvalo, yurtimiz sivilizatsiyasiga xos qadriyatlar rivojini, bu sivilizatsiya tarixida o‘chmas nom qoldirgan olim, mutafakkir va allomalarimizning merosini o‘rganish, bu boradagi xayrli ishlardan biridir. Ana shu yo‘nalishdagi ishlar sivilizatsiyamizning umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘shganligi, boshqa sivilizatsiyalar va xalqaro madaniyatiga omilkor ta’sir o‘tkazganligini, yurtimiz jahon madaniyatining o‘choqlaridan biri bo‘lganligini yanada zamonaviy dalillar bilan boyitadi. Shu bilan birga bu dalillar biz tavsiflayotgan qadriyatlar sohasiga oid tarixiy asoslarni, zamonaviy aksilogiyaning sharqona ildizlarini, uning hozirgi zamondagi yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi, bunda eskinining o‘rnini yangi egallashi, barqaror tizimga aylanishi eski ijtimoiy tizimdan yangisiga o‘tish davriga mos keladi. Bu jarayonda qadriyatlarin barqaror qilish, ularning amaliyotdagi turli farqlar, tafovutlar, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, bu boradagi rang-barang ehtiyoj, qiziqish, maqsad va intilishlarni hisobga olish zaruriyati paydo bo‘ladi. Aynan ana shu zaruriylik esa bu jarayonning samarali amalga oshish yo‘llarini va usullarini tanlashda va amalga oshirishda adashmaslik, ehtiyyot bo‘lish va sobitqadamlikni talab qiladi. Shu bilan birga, nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki iqtisodiy va ma’naviy sohalarda tub o‘zgarishlar bo‘lishini zaruriyatga aylantiradi. Bu masala nihoyatda keng mavzu bo‘lganligidan, unga alohida va atroficha yondashish lozim.

Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularni vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hudud va u bilan bog‘liq tuyg‘ular, millatning o‘tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma’naviy meros bilan bog‘liq qadriyatlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiyliz bo‘lib hisoblanadi. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi “xalqa”lardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarini anglashda, o‘z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarini hisobga oladi, ular bilan bog‘liq jihatlarni nazarda tutadi.

Millatlarning ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlari, milliy sporti, adabiyoti, san’ati va boshqalar bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajadagi namoyon bo‘lish shakllari bog‘langandir. Ularning asosida har bir millat, xalq yoki elatning tarixiy rivojlanish jarayonida avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlari va jihatlari yotadi. Millat faqat muayyan hududda yashaydigan va bir xil tilda so‘zlashadigan kishilardangina iborat emas, balki umumiyliz madaniy-ma’naviy jihat va xususiyatlar asosida mavjud bo‘lib turgan tarixiy-ijtimoiy birlik hamdir.

Madaniy-ma’naviy soha bilan bog‘liq milliy qadriyatlarning amal qilishida uchta jahatni ajratib ko‘rsatish muhim hisoblanadi:

- a) talaba-yoshlarning ijtimoiy ongi bilan bog‘liqlilik;
- b) talaba-yoshlarning munosabati va faoliyati orqali amalga oshirish;
- v) moddiy va ma’naviy sohadagi biror natija, boylik va boshqalar tarzida namoyon bo‘lish.

Kurash orqali talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning pedagogik mazmuniga milliy axloq va odob normalari tarkibida an’anaviy mavjud bo‘lgan kategoriylar, qadriyatning milliy va umuminsoniylik bilan uzviy aloqador bo‘lgan mazmun, shuningdek, demokratik fuqarolik jamiyatni va milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish bilan bog‘liq holda rivojlantirilayotgan kategoriylar tizimi kiradi. Qadriyatlarning singdirilishi O‘zbekiston pedagogik tizimining bosh maqsadi “komil inson” tarbiyasi bilan o‘zviy aloqador ekanligi, uning mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa. Ta’lim va tarbiya jarayoni kurash orqali talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishi uchun oliy ta’lim tizimida “komil shaxs” shakllanishining barcha xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab olgan takomillashtirilgan texnologiya asosida faoliyat olib borish, talabalarni zamonaviy jamiyatda yashashga o‘rgatishning bosh xususiyatlaridan biri sifatida qadriyatlar prinsiplarini qabul qilish, qadriyatlar tamoyillarining mantiqiy uzviyligi va ma’naviy yaxlitligi asosida insonning shaxslararo, jamiyatlararo munosabatlarga kirisha olish qobiyalijatiga ega bo‘lish turli vaziyatlardan to‘g‘ri chiqib keta olish muammolarni adekvat xulosalash kabi xislatlarni tarbiyalashi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagи PF-27-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Abdulaxatov A.R. Kurash falsafasi va uning pedagogik ahamiyati // Monografiya. Fan va talim. – Toshkent, 2022. 172 bet.
5. Abdulaxatov A.R. Kurash orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning ilmiy-nazariy asoslari / Xalq ta’limi. –Toshkent, 2021. – № 5. – B. 10-12 (13.00.00. № 17).